

## Ochiq darsi zavqi

Joriy yilning 10 mart kuni birinchi juftlikda “Qishloq xo'jaligi mashinalari” kafedrasida katta o'qituvchisi Isakov Alijon Abdumitalipovich “G'alla kombaynining don tozalash, somon elagich qismlari, kinematik rejimlari” mavzusida ochiq dars o'tkazdi.

Ochiq darsda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish yo'nalishining 3 ta guruh talabalari hamda fakultet va boshqa turdosh institutlardan taklif etilgan professor – o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Dars o'tish jarayonida A.Isakov yangi pedagogik texnologiyalardan hamda mavzu bo'yicha ma'lumotlarni kompyuter texnikalardan foydalanilgan holda, slaydlar va roliklar yordamida talabalarga to'liq yetkazib berdi.

Ma'ruza talabalar bilan jonli muloqotda o'tkazilib, katta o'qituvchi A.Isakov tomonidan barchaning qiziqqan savollariga to'liq ma'lumotlar berildi.

Dars so'ngida A.Isakovning ma'ruzasi fakultet va boshqa turdosh institutlardan taklif etilgan professor – o'qituvchilar tomonidan muhokama etildi va ijobiy baholandi.



**“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha**

**dekan o'rinbosari Ikrom Raximov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**